

G'ALLA MAYDONLARIDA UCHRAYDIGAN ZAMBURUG'LI KASALLIKLARNING RIVOJLANISHI HAMDA ULARNING O'SIMLIKLARGA YETKAZADIGAN ZARARI

Musayev G'olibjon Ne'matillo o'g'li
ORCID ID: 0009-0001-0239-4870
Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo g'allachiligida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelayotgan kasalliklarning rivojlanishi hamda ularning bug'doy o'simliklarga yetkazadigan zarari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о развитии и распространении болезней, которые являются одной из наиболее острых проблем в мировой зерновой отрасли, а также о вреде, который они наносят растениям пшеницы

Annotatsiya. The article provides information on the development and spread of diseases, which are one of the most pressing problems in the global grain industry, as well as the damage they cause to wheat plants

Kirish. Hozirda dunyoning yirik g'alla sanoatiga ega Avstraliya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Turkiya va ko'pgina mamlakatlarda zang kasalliklarini doimiy monitoring qilish va ularni rivojlanish dinamikasini nazorat qilish hamda chidamli bo'lgan navlarni joriy qilish yo'lga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligida har qanday kasallikka qarshi kurashning eng samarali, arzon va atrof-muhitga xavfsiz bo'lgan ekologik usuli bu chidamli navni ekishdir. Dunyo g'allachilida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan sariq zang kasalligining tarqalishi va uning bug'doy hosildorligi, sifat ko'rsakichlariga ta'siri hamda ular tarqalishining oldini olish, ularga qarshi kurash olib borish dunyo olimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shuningdek, respublikamizda ham g'allachilik sohasida sariq zang kasalligining epifitotiyalari tarqalgan yillarda g'alla hosildorligiga jiddiy zarar keltirmoqda. Natijada, g'alla hosilining yo'qotilishi, don sifatining yomonlashuv hamda katta iqtisodiy zararni keltirib chiqarmoqda va g'alla o'simligining kasalliklariga qarshi kurash olib borish ishlari to'g'ri bajarilmasligi va sanitar-gigienik ishlariga e'tibor bermasligi oqibatida kasalliklarning tarqalishi ehtimolligi ortmoqda

Qo'ng'ir zangi. Kasallik belgilari: barglarda (duch kelgan joylarida) dumaloq, sarg'ish-qo'ng'ir, changli urediniopustulalar hosil bo'ladi va boshqa barglar hamda o'simliklarga shamol yordamida o'tadi. Ob-havo zamburug' uchun qulay bo'lsa (yomg'ir, shabnam, harorat 15-23°C), boshqa barglarga va o'simliklarga yanada kengroq tarqaladi.

Zamburug' yoz paytida o'simliklar qoldiqlarida saqlanmaydi. Kasallik manbai tog'larda qo'ng'ir zang bilan kasallanadigan yovvoyi holda o'sadigan boshqoli o'tlardir. Shu o'tlardan urediniosporalar kuzda kuzgi bug'doy ekinlariga o'tadi va kasallik yangidan tarqaladi. Zamburug' kasal bug'doy maysalarining ichida mitseliy holida va barglarida pustula sifatida qishlaydi.

Sariq zangi. Bu kasallik ekinlarda erta boshlangan bo'lsa, misol uchun bayroq barg chiqish fazasida (boshqoq chiqish davrida) sariq zang rivojlanish darajasi o'rtacha 50-60 foizga yetsa, don hosilining 33,5-39,4 foizi yo'qotilishi mumkin. Kasallik belgilari: qo'ng'ir zangdan farqli o'laroq, sariq zang barglarida uzun, qator-qator joylashgan, ravshan sariq urediniopustulalar hosil qiladi. Bug'doy sariq zang kasalligining ekinlarga tarqalishi va qishlov hususiyatlari qo'ng'ir zangnikidan ancha farq qilmaydi, ammo ob-havoga munosabatlari har xil. Sariq zang ham yomg'ir

shabnam talab qiladi, ammo bu kasallik uchun qulay harorat ancha past.

Sariq zang sporalari muz erish haroratidayoq (0°C da) o'sishni boshlaydi, 9-13°C da qulay o'sadi va o'sishni 23°C gacha davom ettiradi. Spora o'simtalari bug'doy bargi to'qimalari ichiga harorat 2°C va 23°C (optimum 8-13°C) orasida bo'lganida kiradi. Yangi sporalar hosil bo'lishi 5°C va 20°C orasida, eng qulay 12-15°C haroratda kuzatiladi.

Un-shudring. O'zbekistonda bu kasallik asosan bug'doy, arpa va kam hollarda sulida uchraydi. Kasallikning dastlabki belgilari o'simliklarning barglarida oq paxtasimon dog' qatlami hosil qilish bilan boshlanadi. So'ngra qatlam qalinlashib, kulrang yoki sarg'ish-kulrang, bo'tib chiqqan yostiqlar tusiga kiradi. Kasallik bargdan poya va boshqolarga o'tadi. Yostiqlar ustida kasallik chaqiruvchi zamburug'ning konidialari paydo bo'ladi.

Konidialar bir xujayrali, rangsiz, silindrsimon shaklda, shamol orqali boshqa o'simliklarga o'tadi. Kasallik havo harorati 15-20°C va nisbiy namligi 96-99% bo'lganida juda ham tez tarqaladi va rivojlanadi. Kuzda kasallangan o'simliklarda zamburug'ning qishlovchi fazasi meva tanachalari paydo bo'ladi. Ularning ichida askosporalar pishib yetiladi va unib chiqqan kuzgi g'alla ekinlarini zararlaydi.

Sariq dog'lanish (gelmintosporioz) kasalligi Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlarida keng tarqalgan va boshqa viloyatlarda qisman uchraydi. Sariq dog'lanish bilan kasallangan bug'doy barglarida oldin kichkina, dumaloq, qo'ng'ir, keyinchalik esa katta dog'lar rivojlanadi. Kasallik kuchli rivojlanganida bu dog'lar butun barglarni qoplab bargni chirishiga va qurishiga olib keladi. Dog'lar ustidagi hosil bo'lgan zamburug'ning konidialari havo harorati 20-25°C va namligi 100% bo'lganda yomg'ir va shamol yordamida tez tarqalib o'z zararli ta'sirini ko'rsatadi.

Bug'doy septoriozi kasalligi. Septorioz kasalligi bug'doy barglarida meva tanachalari-piknidialarni hosil qiladi. Bu meva tanachalardan konidialar chiqib yomg'ir va shamol yordamida boshqa o'simliklarga o'tib tarqaladi. Zamburug'ning piknidialari va mitseliylari qishlovdan chiqib bahorda yosh o'simlik maysalarga tarqaladi.

Qattiq qorakuya kasalligi. Bug'doyning qattiq qora kuya kasalligi keng tarqalgan bo'lib, uning belgilaridan biri don o'rniga

qorakuya sporalari bilan to'lgan xaltachalar hosil bo'lishidir. Kasallikni tarqatuvchi infeksiyasi urug'ning faqat tashqi qismida saqlanadi.

Changli qorakuya kasalligi 0,5-1 foiz ekinlarda uchraydi. Biroq urug'lar dorilanmasdan yoki preparatlar bilan sifatsiz dorilanib ekilsa tarqalishi 10-20 foizgacha boradi. Kasallik faqat urug'lik donning ichida bo'ladi. Changli qorakuya zamburug'lari boshqoq va ro'vaklarda qoramtir chang rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari kasallangan o'simlikni o'sishdan to'xtatib, boshqoqdagi don vaznini va miqdorini kamaytiradi.

Fuzarioz ildiz chirish, unayotgan urug' mog'orlanishi kasalligi. Kuzgi g'alla ekinlari lalmi yerlarda bahori ekinlarga

nisbatan 20-40 % ko'proq hosil beradi. Sug'oriladigan yerlarda bu hol ko'p uchraydi, ayniqsa suv kech berilsa va urug'lik sifati past bo'lsa, urug'likning ichki va ustki qismlari ildiz chirishni chaqiruvchi patogen zamburug'lar bilan zararlangan bo'lsa, maysalarda ildiz chirish va siyraklashish hollari kuzatiladi; hosildorlik 1-3 foizdan 10-20 foizgacha kamayishi mumkin).

Boshqoq fuzariozi bug'doyning boshqoq va donlarini zararlaydi. Kasallik manbai g'allasimon begona o'tlar, tuproq va o'simlik qoldiqlari hisoblanadi. Yomg'ir, shamol va hasharotlar orqali tarqaladi. Bug'doyning boshqoqlash fazasida havo haroratining 28-30°C va nisbiy namlikning yuqori bo'lishi kasallikni kuchaytirib, gullash fazasida qattiq zararlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Ибрагимов.З.А., Мансурова.Л., Доминова.Д. Буғдой занг касалликларининг белгилари, ривожланиши ва қарши кураш чоралари. // “Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва дастлабки қайта ишлашнинг қишлоқ хўжалиги, экология ва табиий ресурслардан самарали фойдаланишни ривожлантиришдаги ўрни”. Республика илмий анжумани мақолалар тўплами – Қарши, 2017. Б. 327-328.
2. Дувиллер.Е., Сингх.П.К., Меццалама.М., Сингх.Р.П., Дабабат.А. (2018) Листовая (бурая) ржавчина. // Болезни и вредители пшеницы Руководство для полевого определения (2-е издание) Продовольственная и сельскохозяйственная организация объединенных Наций. Анкара, 2018. С. 3.
3. Холмуродов.Э.А., Ҳасанов.Б., Болтаев.Б., Нуралиев.Х.Х., Комилов.Ш.Г. “Фалланинг зараркунанда, касаллик ва бегона ўтларига қарши кураш чоралари” бўйича тавсиянома. – Тошкент, 2013. Б. 19-20.
4. Вихров.Е.А. Пораженность озимой пшеницы листовыми болезнями в лесостепи самарской области. // Агрохимия, агропочвоведение, защита и карантин растений. Поволжский научно-исследовательский институт селекции и семеноводства им. П.Н. Константинова – филиал Самарского федерального исследовательского центра РАН, Самара, Россия, 2022. С. 61.